

KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O'QUVCHILARIDA MAS'ULIYATLI  
MUNOSABATNI RIVOJLANTIRISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI

Ibragimova Shahlo Oyturaxonovna

*Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi*

Shodmonova Shahnozaxon Sherzodbekovna

*Farg'ona davlat universiteti talabasi*

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida mas'uliyatli munosabatni rivojlantirishning o'ziga xos pedagogik-psixologik xususiyatlari yoritilgan. Shuningdek, kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning bilish faoliyatlari, psixologik jihatdan bilish mayllari bayon qilingan.*

**Kalit so'zlar.** *Kichik maktab yoshdagi o'quvchilar, mas'uliyatli munosabat, hayotiy pozitsiya, bilish mayllari, o'quv-biluv faoliyati, o'quv vaziyatlari, axloqiy me'yorlar, o'quv materiali, do'stona munosabat, intellektual rivojlanish.*

**Аннотация.** В данной статье освещаются специфические педагогико-психологические особенности формирования ответственного отношения у учащихся начальных классов. Также описываются познавательная деятельность и психологические тенденции учащихся младшего школьного возраста.

**Ключевые слова.** Учащиеся младшего школьного возраста, ответственное отношение, жизненная позиция, познавательные наклонности, учебно-познавательная деятельность, учебные ситуации, нравственные нормы, учебный материал, доброжелательное отношение, интеллектуальное развитие.

**Abstract.** *This article highlights the specific pedagogical and psychological features of developing responsible attitude in primary school students. Also, cognitive activities and psychological tendencies of students of junior school age are described.*

**Keywords.** *Pupils of junior school age, responsible attitude, life position, cognitive inclinations, educational and cognitive activities, educational situations, moral norms, educational material, friendly attitude, intellectual development.*

Bolani har tomonlama barkamol shaxs sifatida tarkib toptirishda uning axloqiy tarbiyasi muhim hisoblanadi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning mifikda muvaffaqiyatli o'qishi, balki hayotiy pozitsiyasining shakllanishi ham axloqiy tarbiyasi darajasiga bog'liq. Bu yosh davrida oilada va mifikda

tashkil etilgan pedagogik jarayonlarda bolaning shaxsiyati shakllanadi, ya’ni tashabbuskorlik, ijtimoiy faollik, tashkilotchilik, muloqotga kirishuvchanlik, mustaqillik, mas’uliyat, javobgarlik kabi asosiy shaxsiy fazilatlar shakllanadi[1].

Pedagogika ensiklopediyasida “Mas’uliyatlilik (arabcha – javobgarlik, hisob berishlik) biror ish, xatti-harakat oqibati, natijasi uchun bo’lgan javobgarlik. Mas’uliyatlilik ma’naviy, ijtimoiy va ma’muriy-huquqiy sohalarda keng qo’llaniladigan tushuncha; ma’naviyat nuqtai nazaridan yondashilganida burchi; ijtimoiy ma’noda jamiyat va b. oldidagi ma’naviy qarzdorlik; ma’muriy jihatdan, ijtimoiy tartibga solishning turli me’yorlarini amalga oshirishni nazarida tutuvchi jamoatchilik nazoratining namoyon bo’lishi; huquqiy yondashuvda esa asosan yuridik javobgarlikni anglatadigan serqirra va keng ma’noli kategoriya”[2] tarzida ifodalangan.

Boshlang’ich sinf o’quvchilari uchun bu davr obrazli tafakkur qilish asosida intellektual rivojlanish davridir. Bu asosan o’quv-biluv jarayonida amalga oshadi. Bu o’quv-biluv jarayonida shaxsning boshqa jihatlari rivojlanmaydi degan xulosaga kelish uchun asos bo’la olmaydi. Biz boshlang’ich sinf o’quvchilari uchun yetakchi bo’lgan rivojlanish yo’nalishini asoslashga harakat qilamiz. Bu davrda rivojlanish jarayoni boshlang’ich sinf o’quvchilarining identifikatsiyasi, ya’ni aynan o’xhatilishi, tenglashtirilishi bilan chambarchas bog’liqdir.

Intellektual rivojlanishda o’z-o’zini hurmat qilishning asosini o’quvchilarining shaxsiy ijobiy tajribasi tashkil qiladi. Bu o’quv-biluv jarayonida namoyon bo’ladi. Kuzatishlarimiz shuni ko’rsatmoqdaki, aksariyat boshlang’ich sinf o’quvchilarida bunday tajriba mayjud emas. O’z faoliyati natijasidan qoniqmaslikning o’zigma o’quvchilar o’z-o’zlarini hurmat qilishlarining asosini tashkil eta olmaydi. Bu yo’nalishda muhim o’rin egallaydigan qonuniyatlardan biri – boshlang’ich sinf o’quvchilarida muayyan o’quv vaziyatlarida bilish faoliyatining rivojlanishi, shaxsiy tenglik hamda o’z-o’zlarini hurmat qilishlaridir.

Kichik maktab yoshidagi o’quvchilar 1-4 sinflarda ta’lim oladilar. 1-4 sinf 7 yoshdan 11 yoshgacha bo’lgan davrni qamrab oladi. 7 - 11 yosh davrida o’quvchilar ruhiy, psixofiziologik jihatdan jadal rivojlanadilar. Bu esa ularning maktabda izchil tarzda bilim olishlarini ta’minlaydi[3].

Maktabostonasiga qadam qo’ygach o’quvchi hayotida ijtimoiy-pedagogik o’zgarishlar sodir bo’lib, ular ishtirokida yangicha ijtimoiy vaziyat vujudga keladi. 7yoshdan 11yoshgacha bo’lgan davrda o’quvchi ijtimoiy sub’ekt sifatida namoyon bo’la boshlaydi. Shu bilan bir qatorda, o’quvchilar ijtimoiy jihatdan

ahamiyatli bo'lgan vazifalarni bajarishga kirishadilar. Mazkur vazifalarni bajarish natijasida ularning faoliyati ijtimoiy jihatdan baholanadi. Boshlang'ich ta'lism jarayonida o'quvchilar atrof-muhitdagilar bilan o'zaro munosabatning yangi turiga kirishadilar. Ular uchun tengdoshlari va o'zlari mansub bo'lgan ijtimoiy jamoalar alohida ahamiyat kasb eta boshlaydi. 7yoshdan 11yoshgacha bo'lgan davrda o'quvchilar uchun o'quv faoliyati yetakchi ahamiyat kasb etadi. U muhim o'zgarishlarga yo'l ochib ularning ruhiyatini rivojlantirishda alohida ahamiyat kasb eta boshlaydi.

O'quv faoliyati doirasida psixologik jihatdan yangicha shakllangan bu yoshdagi o'quvchilar uchun ko'proq ahamiyatli bo'lgan yutuqlarni ifodalovchi ularning taraqqiyoti uchun asos bo'lib xizmat qiladigan ko'rsatkichlar o'quvchilarining ta'larning keyingi bosqichlarida samarali rivojlanishlarini ta'minlaydi. O'quvchilarining bilish mayllari bosqichma-bosqich birinchi sinfdagiga nisbatan ikkinchi va hokazo sinflarda pasayib boradi. Bu ularning o'qishga bo'lgan qiziqishlarining pasayishi natijasida vujudga keladi. Chunki o'quvchilar asta-sekin muayyan ijtimoiy mavqeni egallaydilar. Bunday holatga yo'l qo'ymaslik uchun bilish jarayoniga yangicha o'quvchi uchun shaxsiy ahamiyatga ega bo'lgan mayllarni hosil qilish kerak. O'quvchilarining rivojlanishlarida bilish faoliyatining yetakchi o'rinnegallashi ularni faoliyatning boshqa turlariga jalb etilishlarini inkor qilmaydi. O'quvchilarining muayyan o'quv vaziyatlarida bilish faoliyatlarini rivojlantirish natijasida ularning yangidan-yangi yutuqlari mustahkamlanadi va bilish faoliyatları kengayadi. Chunki o'quv faoliyatining dastlabki kunlaridan boshlab o'quvchilarining tafakkurlari ularning ongli faoliyatları markaziga qarab harakatlanadi. So'z qol'lash mantiqining rivojlanishi, hukm chiqaruvchi tafakkur, ilmiy bilimlarni o'zlashtirish natijasida vujudga keladi. Bu esa o'quvchilarining boshqa bilish faoliyatlarini ham qayta quradi. 7yoshdan 11yoshgacha bo'lgan davrda o'quvchilarining xotirasi fikrlovchi xarakter kasb etadi, idrokleri esa o'ylovchanlik mohiyatiga ega[4].

Boshlang'ich ta'lism jarayonida o'quvchilar diqqatining rivojlanishida muayyan o'zgarishlar vujudga keladi. O'quvchilar diqqatining o'ziga xos jihatlari jadal tarzda rivojlanadi. 7yoshdan 11yoshgacha bo'lgan davrga kelib o'quvchilar diqqatining ko'lami sezilarli darajada kengayadi. Uning barqarorligi kuchayib, uyg'unlashtirish va taqsimlash ko'nikmalari rivojlanadi. 3-4-sinf o'quvchilari o'z diqqatlarini muayyan hodisaga yetarli darajada qaratish va topshirilgan harakat dasturini ixtiyoriy tarzda bajarish ko'nikmasiga ega bo'ladilar.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida xotira boshqa barcha ruhiy jarayonlar singari muayyan o‘zgarishlarga duch keladi. Uning mohiyati shundan iboratki, ularning xotirasi bosqichma-bosqich ixtiyoriy xarakter kasb etadi. Shuning uchun ham bu davrda o‘quvchilarning xotiralari samarali boshqariladi.

Shunga ko‘ra kichik maktab yoshi ixtiyoriy xotiraning yuqori darajasi shakllanishi uchun senzitiv davr hisoblanadi. Shuning uchun ham o‘quvchilarning bilish faoliyatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan o‘quv vaziyatlari va boshqa maqsadli ishlar bu davrda alohida samaradorlikka ega. Turli o‘quv vaziyatlarida o‘quvchilarning o‘quv materiallarini eslab qolishlarining quyidagi usullari alohida samaradorlik kasb etadi:

- O‘quv topshiriqlarini guruhash;
- O‘quv vaziyatlarining tayanch nuqtalarini aniqlash;
- Reja tuzish, tasniflash, tarkiblashtirish;
- Chizmalar yaratish, o‘zaro o‘xshash holatlarni topish;
- Qulay usullardan foydalanish;
- Qayta kodlashtirish;
- Esda saqlangan o‘quv materiallarini qayta tiklash;
- Bog‘lanishlarni tashkil etish;
- Takrorlash.

Bu tizimda asosiy o‘rin egallaydigan holatni ajratishning qiyinligi bilish faoliyatining alohida ko‘rinishi orqali namoyon bo‘lishidadir. Masalan, muayyan matnni so‘zlab berish jarayonida bu holatni kuzatish mumkin. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning matnlarni so‘zlab berishlaridagi asosiy xususiyat shundaki, qisqa hikoya qilish, ularga batafsil hikoya qilishdan qiyinroq kechadi. So‘zlab berishning qiyinligi asosiy fikrni ajratish, uni boshqa detallardan farqlash boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun qiyin kechadi[5].

Mazkur yoshda boshqacha ko‘rinishdagi muhim harakatlar ham vujudga keladi. Bu ixtiyoriy xulq-atvordir. Bunda o‘quvchi mustaqil bo‘ladi, muayyan vaziyatda qanday yo‘l tutish kerakligini o‘zi tanlaydi. Bunday xulq-atvor zaminida o‘quvchilarning axloqiy mayllari namoyon bo‘ladi. Ushbu axloqiy mayllar boshlang‘ich ta’lim jarayonida tarkib topadi. O‘quvchilar ma’naviy qadriyatlarni o‘zlashtiradilar va o‘z faoliyatlarida ularga tayanadilar. Ular muayyan qonun-qoidalarga amal qila boshlaydilar. Bu jarayonda ba’zan ularning xudbinlik mayllari ham namoyon bo‘ladi. Ular tengdoshlari orasida o‘z mavqelarini mustahkamlash, kattalar tomonidan tan olinishiga intiladilar. Bu ular xulq-atvorida turli holatlarning namoyon bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Bu asosiy mayllar bilan bog‘liq bo‘lib, o‘quvchilar uchun yetakchi bo‘lgan mayl – yutuqlarga erishish maylidir.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ixtiyoriy xulq-atvorning shakllanishi o‘z harakatlarini rejalashtirish va bilishga asoslangan tahliliy faoliyat natijasidir. Bu davrda o‘quvchi bajargan faoliyati natijasiga qarab, o‘z xati-harakatlariga baho beradi. Shu bilan bir qatorda, o‘z xulq-atvorini muayyan reja asosida o‘zgartiradi. Buning natijasida o‘quvchilarda fikriy yo‘naltirilgan asos vujudga keladi. Bu esa o‘quvchining ichki hamda tashqi hayotidagi tabaqalashuv jarayoni bilan bog‘liqdir. O‘quvchi o‘z istaklari ustidan g‘alaba qozonish imkoniyatiga ega. Qaysikim, bu istaklarni amalga oshirish natijalari muayyan me’yorlarga to‘g‘ri kelmasa yoki qo‘yilgan maqsadga erishish imkonini bermasa.

O‘quvchi ichki olamining muhim jihatni o‘z harakatlarining mantiqiy asoslarga ega bo‘lishidir. Bu o‘quvchining atrofdagilar bilan munosabati o‘zgarishidan qo‘rqishini ifodalovchi tashvishlari bilan bog‘liq. O‘quvchi atrofdagilar oldida o‘z harakatlarining ahamiyatiligi va mohiyatini yo‘qotishdan qo‘rqadi. Shuning uchun ham o‘quvchi o‘z harakatlari ustida faol tarzda fikrlay boshlaydi, o‘z tashvishlariga barham beradi.

O‘quvchining tashqi olami ichki olamidan farq qiladi. O‘quvchilardagi aynan mana shunday o‘zgarishlar kattalarga nisbatan hissiyotlarning namoyon bo‘lishiga olib keladi. Buning natijasida ular injiqlik bilan o‘z istaklarini namoyon qiladilar. Mazkur yoshda o‘quvchilarda namoyon bo‘ladigan salbiy holatlar ulardagi ruhiy nomuvofiqlikda namoyon bo‘ladi. Ularning kayfiyatlarini va irodalari har doim ham barqaror bo‘lavermaydi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilish faoliyatining rivojlanishi ularning o‘quv vaziyatidagi muvaffaqiyatlari bilan bog‘liq. Shu bilan bir qatorda, o‘quvchilar bilish faoliyatining rivojlanishida o‘qituvchilar hamda ota-onalarning ularga beradigan baholari ham muhim o‘rin egallaydi. Bu yoshdagagi o‘quvchilar tashqi ta’sirlarga beriluvchan bo‘ladilar. Xuddi shuning natijasida ular bilimlarni ham intellektual, ham axloqiy rivojlanish imkoniyati sifatida o‘zlashtiradilar. O‘quvchilarda axloqiy me’yorlarning shakllanishi va qiziqishlarining tarkib topishida o‘qituvchi muhim o‘rin egalalydi. Bu jarayonda o‘quvchi bilish faoliyatining rivojlanishi ularning boshqa o‘quvchilar bilan vujudga keladigan munosabatlariga bevosita bog‘liqdir. Atrofdagi katta yoshdagilar ham o‘quvchilar bilish faoliyatining rivojlanishida muhim o‘rin egallaydilar.

Boshling‘ich ta’lim jarayonida o‘quvchilarning yutuqlarni qo‘lga kiritishga intilishlari kuchli tarzda namoyon bo‘ladi. Shuning uchun ham bu davrda o‘quvchilarning asosiy mayllari yutuqlarni qo‘lga kiritish mayllari hisoblanadi. Bunday o‘quvchilarda muvaffaqiyatsizliklardan qochish mayllari ustuvorlik qiladi.

O‘quvchi ongida muayyan maqsadlar, xulq-atvorning yuksak namunalari o‘z ifodasini topadi. O‘quvchining bilish faoliyati rivojlangan sari u mazkur maqsadlarning qimmati va muhimligini ko‘proq anglay boshlaydi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining bilish faoliyatları yanada samaraliroq rivojlanishi uchun o‘qituvchilar va ota-onalarning diqqat-e’tibori va ularga beradigan baholari ayniqsa muhim hisoblanadi. O‘quvchilarning xatti-harakatlariga kattalar va o‘qituvchilar tomonidan berilgan hissiy baho ularning axloqiy hissiyotlari rivojlanishini aniqlaydi. Buning natijasida o‘quvchilar o‘quv jarayonida tanishadigan qoidalarga mas’uliyatli tarzda jiddiy munosabatda bo‘ladilar.

Maktabga qadam qo‘ygach, o‘quvchilar uchun ijtimoiy faoliyat ko‘rsatish vaziyati vujudga keladi. Mazkur vaziyatda ular muayyan tartib-qoidalarga amal qilgan holda harakatlanadilar. Xuddi mana shu davrda o‘quvchi o‘zining noyob imkoniyatlarini namoyon qiladi. U o‘zini shaxs sifatida anglay boshlaydi va muntazam takomillashishga intiladi. Bu o‘quvchi hayotining barcha jabhalarida, ayniqsa bilish faoliyatida yaqqol namoyon bo‘ladi. O‘quvchi bilish faoliyatining rivojlanishida ularning tengdoshlari bilan o‘zaro munosabatlari ham muhim o‘rin egallaydi. Shundagina o‘quv vaziyatlarida birgalikda ishtirok etishning faol shakllari vujudga keladi. Bilish faoliyati muayyan darajada rivojlangan o‘quvchilar o‘z sinfdoshlari orasida yetakchilikka intiladilar. Ular o‘z sinfdoshlari bilan jadal tarzda do‘stona munosabatlarga kirishadilar. Biroq, mazkur munosabatlar nisbiy barqarorlikka ega bo‘ladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini o‘z sinfdoshlari bilan tezgina do‘stlashib, umumiyligi til topisha oladilar. O‘quvchilarning yaqin do‘stlik munosabatlarini o‘rnatishga layoqatliliklari ular orasidagi hissiy aloqalarni oydinlashtirib, 1-4-sinflar davomida mustahkamlanadi. O‘quvchilar o‘zlarining jamoalari uchun qiziqarli va yoqimli bo‘lgan faoliyat usullarini egallahsga ko‘proq intiladilar. Buning natijasida ular o‘z do‘stlari davrasida obro‘-e’tibor qozonadilar.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini bilish faoliyatining rivojlanishida ijtimoiy xulq-atvor ko‘nimlari muhim o‘rin egallaydi. O‘quvchilar yangi ijtimoiy munosabatlarga kirishar ekanlar, o‘zlarini boshqalar bilan qiyoslay boshlaydilar. Ularning muvaffaqiyatlari, xulq-atvorlari, yutuqlariga qarab, o‘zlarining layoqatlari va shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga intiladilar. Shuning uchun ham, o‘quvchilar bilish faoliyatining rivojlanishida boshlang‘ich ta’lim jarayoni alohida o‘ziga xos bosqich hisoblanadi. Mazkur bosqichning asosiy yutug‘i o‘quvchilarda bilish faoliyatini jadal rivojlantirish imkoniyatining mavjudligidadir. Shuning uchun ham bu davr ta’limning keyingi bosqichlari uchun qulay zamin yaratish imkoniyatiga ega. Boshlang‘ich ta’lim yakunida

o‘quvchi o‘z kuchiga ishonishi, intellektual jihatdan rivojlanishi va ta’lim olishga intilishi, muayyan o‘quv vaziyatlarida muvaffaqiyat qozonishi lozim.

Mazkur davrning to‘laqonliligi shundaki, bu jarayonda o‘quvchi bilish faoliyatining asosiy sub’ekti sifatida namoyon bo‘la oladi. Bu jarayonda o‘qituvchi bajaradigan asosiy faoliyat o‘quvchilar bilish imkoniyatlarining ochilishi uchun qulay sharoit yaratish hamda har bir o‘quvchining o‘ziga xosligini hisobga olgan holda ularning bilish imkoniyatlarini namoyon qilishlari uchun zarur o‘quv vaziyatini vujudga keltirishdan iborat.

### **FOYDALANILGAN MANBALAR:**

1. Boshlang‘ich ta’lim konsepsiysi // Abdullaeva Q., Safarova R. va boshq. // Boshlang‘ich ta’lim j. –T.: 1998. -№6. – B. 12-18.
2. Pedagogika: ensiklopediya. II jild / tuzuvchilar: jamoa.//Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. 2015. – 376 b.
3. 1001 savolga psixologning 1001 javobi / G‘.B.Shouumarov tahriri ostida. YuNESKO, YuNPFA loyihasi asoslida. □ T.: Mehnat, 2001. □ 192 b.
4. Adizov B.R. Boshlang‘ich ta’limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari. 13.00.01. Ped. fan. doktorlik diss avtoreferati. - T. 2003.- 44 b.
5. Najmiddinova G.N. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari o‘quv-biluv faoliyatini shakllantirishning didaktik asoslari. 13.00.01. Ped. fan. nomz. diss - T.2006.- 139 b.